

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№4

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026
APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

STRATEGIC INTEGRATION OF BUSINESS PLANNING AND FORECASTING IN INDUSTRIAL ENTERPRISES.....	11
Sharipov K.A., Ismatullayev T.R.	
ВКЛАД БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ В СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ МАХАЛЛЕЙ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН: МЕХАНИЗМЫ, ДИНАМИКА И СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ	21
Бабаназарова Гульзар Зиуатдиновна	
BUDJET TASHKILOTLARIDA XARAJATLARNI REJALASHTIRISH VA MOLIVAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISH.....	27
Karayev Payzillaxon Yusufxonovich	
FERMER XO'JALIKLARINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA SUBSIDIYA AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH.....	32
Xakimov Zafar Ibragimovich	
IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA DAVLAT INNOVATSION VA INVESTITSION SIYOSATINING O'RNI	38
Xaydarova Yorqinoy Asqar qizi	
QURILISH SANOATIDA KORXONALARNI MOLIVALASHTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYALARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLARI.....	44
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
ОСОБЕННОСТИ ВЫБОРА СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ МЕТАЛЛУРГИЧЕСКОГО КОМПЛЕКСА	50
Абдуллаева Матлуба Нематовна, Акбарова Муфаррах Мухитдиновна	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ КОМПАЕНС-КОНТРОЛЯ В КОМПАНИЯХ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ В УЗБЕКИСТАНЕ	56
Халтурдиев Айтмурат Маратович	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING ICHKI BELGILARI	64
Saatova Lolaxon Ergashevna	
INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA OZIQ-OVQAT KORXONALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH MECHANIZMLARI	71
Pulatov Abdullo	
MAJBURIY IJRO ETISH CHORALARINI TAKOMILLASHTIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....	76
Axmedov Zafarjon Zokirjon	
МОДЕЛЬ ИНТЕГРИРОВАННОЙ СИСТЕМЫ ESG-ТРАНСФОРМАЦИИ И ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ЕЁ РЕАЛИЗАЦИИ НА ПРЕДПРИЯТИИ ПО ПРОИЗВОДСТВУ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВКИ	80
Ташпулатов Дильмурад Рустамович	
KORPORATIV KORXONALARDA KAPITALNI BUDJETLASHTIRISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	85
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
INNOVATSION MENEJMENTDA KOMMUNIKATSIYA VA TASHKILY MOSLASHUVCHANLIKNING ROLI: O'ZBEKISTON SHAROITI MISOLIDA	92
Atamatov Abdualil Salomovich	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING AHAMIYATI VA UNING SALOHİYATINI BELGILOVCHI OMILLAR	97
Qodirov Baxodir Tursunovich, To'rayev Qaxramon Zokirjonovich	



NAMANGAN VILOYATIDA AYOLLAR TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK MUHITINI BAHOLASH	103
Raximova Moxigul Isroiljonovna	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI	107
Davitova Shaxzoda Doniyor qizi	
ANALYSIS OF THE FORMATION OF MARKET DEMAND AND THE ESTABLISHMENT OF EQUILIBRIUM IN A MARKET ECONOMY	112
Kamilova Nargiza	
BO'LAJAK FIZIKA O'QITUVCHILARINI NANOTEXNOLOGIYA SOHASIDAGI BILIMLARNI TAQDIM ETISHGA VA O'QITISHGA TAYYORLASH METODIKASI	115
Sottarov Abdulvali Umirqulovich	
INTEGRATING AI INTO STRATEGIC MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS	120
Uktamova Durdona Bakhtiyor qizi, Sultonali Umaraliyevich Mekhmonov	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA IJTIMOYIY HISOBOTLAR VA ULARNING AHAMIYATI	130
Sayfullayev Mexroj Sayfullayevich	
SANOAT KLASTERINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY JIHATLARI.....	135
Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLIGINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI	140
Yangiboev Rustam Berdiyrovich	
MINTAQA IQTISODIY O'SISH DRAYVERLARINI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY XAVFLARNI BOSHQARISH MEKANIZMLARI.....	145
Turopova Nigora Xolmurod qizi	
ЭКОЛОГИЯ ТУРИСТА КАК МЕТОД СОЗДАНИЯ КОМФОРТНОЙ И УСТОЙЧИВОЙ СРЕДЫ ДЛЯ ПУТЕШЕСТВЕННИКОВ.....	149
Наурызбаев Алиакбар Рустамович	
BINO VA INSHOOTLARNI BARPO ETISHDA PREFABRIKATSIYALASHGAN HAMDA MODULLI QURILISH TIZIMLARINI AQLLI BOSHQARUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	152
Solijonov Javoxirmirzo Obidjon o'g'li	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA AKSIYADORLIK TIJORAT BANKLARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	163
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	
O'ZBEKISTONDA KO'CHAT YETISHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	169
Abdufarmonov Farrux Faxriddinovich	
O'ZBEKISTONDA EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI SIFATI VA XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQLIGI TAHLILI	174
Safarova Muxabbat Radjabovna	
TIJORAT BANKLARI DEPOZIT SIYOSATI VA DEPOZIT BAZASI DINAMIKASINING BANK LIKVIDLIGIGA TA'SIRI	178
Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ISLOMIY MOLIYANING BANK TIZIMIGA INTEGRATSIYASI: MUAMMOLAR, IMKONIYATLAR VA TRANSFORMATSIYA YO'NALISHLARI	186
Adilov Zuxriddin Marip o'g'li	
SAMARQAND VILOYATI SANOATINING HUDUDIY TARKIBINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....	190
Uralov Eliboy Omonovich	



DIVERSIFIKATSIYALASHUV ASOSIDA QURILISH TARMOG'I RIVOJLANISHINI KO'P OMILLI BOG'LANISHLAR ASOSIDA MODELLASHTIRISH.....	194
<i>Yembergenova Aynur Aydosbaevna</i>	
ЩЕБЕНОЧНО-МАСТИЧНЫЙ АСФАЛЬТОБЕТОН В КИТАЕ: СОСТАВ, СВОЙСТВА, ИННОВАЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ.....	201
<i>Карабаев Абдужаббор Мелиевич, Занг Хайфей</i>	
TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA SUBYEKTIV RISKNI SHAKLLANTIRUVCHI KOGNITIV OMILLAR VA ULARNI BOSHQARISH MEKANIZMLARI	205
<i>Abduxamid Abdumalikovich Bektemirov</i>	
HOMILADOR AYOLLAR UCHUN MAXSUS KIYIMLARNI LOYIHALASHDA ISTE'MOLCHILAR TALABLARINI O'RGANISH	211
<i>D.Sattarova, U.Vakhidova, D.Madiyarovna</i>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI DAROMADLARIGA TA'SIR ETUVCHI STATISTIK INDIKATORLAR TIZIMINING METODOLOGIK ASOSLARI VA ULARNING TAHLILYI IMKONIYATLARI	217
<i>Atayev Jaxongir Erkinovich</i>	
KICHIK BIZNES INVESTITSION KREDITLARINI TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MOLIYALASHTIRISH.....	221
<i>M.O.Yuldoshova</i>	
HUDUDNING "YASHIL IQTISODIYOT" ASOSIDA RIVOJLANISHINI TADQIQ ETISH: KO'RSATKICHLAR TIZIMI VA BAHOLASH USULLARI	226
<i>Shomirzayev Abdug'affor Abdujabbor o'g'li</i>	
O'ZBEKISTONDA SUV XO'JALIGI TIZIMIDAGI QAYTA TIKLANUVCHI HAVZALAR	231
<i>To'rayev Rasul Nortojiyevich, Seytov Aybek Jumabayevich, Uteuliyev Niyatbay Uteuliyevich, Haydarova Roziya Davronovna</i>	
KORXONALAR IQTISODIY BARQARORLIGINING NAZARIY MODELLARI VA SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA BAHOLASH MEKANIZMLARI	236
<i>Iminova Nargizaxon Akramovna</i>	
TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA SIYOSATI VA QIMMATLI QOG'OZLAR PORTFELINI BOSHQARISH STRATEGIYALARI	241
<i>Abduvaliyev Sanjar Abdurahmonovich</i>	
PAHTA VA MEVA-SABZAVOT YETISHTIRUVCHI FERMERLARDA TAVAKKALCHILIK XULQ-ATVORINING QIYOSIY TAHLILI: ISTIQBOL NAZARIYASI ASOSIDA.....	249
<i>Tadjiyev Abdusame Abduhamidovich</i>	
ФОРМИРОВАНИЕ МАРКЕТИНГОВОЙ СТРАТЕГИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ.....	253
<i>Алиев Абдулазиз Исмаилович, Кахрамонова Азиза Шухрат кизи</i>	
QQS TIZIMI SAMARADORLIGINI XALQARO INDIKATORLAR ASOSIDA BAHOLASH	259
<i>Eshkarayev Bobir Chariyevich</i>	
QISHLOQ XO'JALIGIDA OZIYQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING INNOVATSION USULLARI	265
<i>Tadjimirzayev Anvar Abduvoxiidovich, Batirova Raxima Abdujabborovna</i>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH MEKANIZMINING AMALIY TAHLILLARI.....	273
<i>Hamroyev Sherzod Axtamovich</i>	
ПРОГНОЗИРОВАНИЕ ПОТРЕБИТЕЛЬСКОГО СПРОСА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ МЕТОДОВ МАШИННОГО ОБУЧЕНИЯ В РОЗНИЧНОЙ ТОРГОВЛЕ УЗБЕКИСТАНА.....	280
<i>Тен Марина Владимировна</i>	
O'ZBEKISTON SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH DASTURLARINING IMPORT O'RNINI BOSISHDAGI SAMARADORLIGI TAHLILI	287
<i>Sobitova Ra'no Solidjonovna</i>	



NEFT-GAZ LOYIHALARIDA DAVLAT VA INVESTOR MANFAATLARINI MUVOFIQLASHTIRISHNING FISKAL-BOJXONA MEXANIZMLARI.....	290
Mansurov Obid Zaynidinovich	
QURILISH KORXONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH INSTRUMENTLARI	296
Yahyoyev To'liqin Ismatulla o'g'li	
QASHQADARYO VILOYATIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT INFRATUZILMASINING TA'SIRI.....	300
Jahongir Ruziboyevich Qosimov, Narzullayeva Charos	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELINING SEKTORLAR KESIMIDAGI RISKLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	306
Norova Nozima Nabiyeвна	
AVTOMOBIL SANOATI KORXONALARIDA BREND STRATEGIYASINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY MODELLARI.....	312
Boboyev L Kadruxja Djuraxodjayeвich	
HUDUD EKSPORT SALOHİYATINI STATISTIK TADQIQ ETISHDA RCA INDEKSIDAN FOYDALANISH.....	318
Xurramov Ramazon Allayor o'g'li	
СОВРЕМЕННЫЕ КОНЦЕПЦИИ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ УПРАВЛЕНИЯ СТРАТЕГИЕЙ БРЕНДОВ В АВТОМОБИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	325
Бобоев Л Кадрухжа Джураходжаевич	
HUDUDLARDA UY-JOY QURILISHI JARAYONINI TASHKIL ETISHNING QONUNIYATLARI VA TAMOYILLARI.....	331
Usmanov Mirumar Abdulla o'g'li	
OYNALI FASAD TIZIMLARINI MONTAJ QILISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI	339
Inamov Boxodir Nizamovich, Ozodxo'jayev G'aybulla Sherzodxo'ja o'g'li	
KLASSIK SHIFRLASH ALGORITMLARINING XUSUSIYATLARINI NEYRON TARMOQ ORQALI O'RGANISH.....	344
Davlatov Mirzo-Ulug'bek Bobir o'g'li, Allanov Orif Menglimuratovich, Turdibekov Baxtiyor Baxodir o'gli	
АЛГОРИТМ АДАПТАЦИИ ПАРАМЕТРОВ СИСТЕМ ИДЕНТИФИКАЦИИ ДИНАМИЧЕСКИХ ОБЪЕКТОВ.....	350
Сидиков Исамиддин Хакимович, Алимова Гулчехра Рахимжоновна, Ибрагимов Беғовот Шералиевич	
ELEKTRON HUKUMATNING BARQAROR RIVOJLANISHI: QOZOG'ISTON VA O'ZBEKISTON TAJRIBASINING QIYOSIY TAHLILI.....	355
Umarova Durdona Abdumannabovna	
UY-JOY FONDI BOSHQARUVINING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	360
Aminova Naima Umar qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJI VA UNI TARTIBGA SOLISHDA MUVOZANATLI REGULYATIV SIYOSAT YURITISH.....	365
Davlatov Ulug'bek Baxodirovich	
HUDUDIY SANOAT ISHLAB CHIQRISHNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI	370
Avliyaqulov Xudoyberdi	
O'ZBEKISTONDA AHOLINI UY-JOY BILAN TA'MINLASH DASTURLARIDA MAVJUD MUAMMOLAR.....	374
Xannarov Komiljon Karimovich	
DAVLAT FUQAROLIK XIZMATINING JOZIBADORLIGINI OSHIRISH VA DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARINI MOTIVATSİYALASHGA OID TEXNOLOGIYALAR.....	380
Bekmurodov Navruz Ergashevich	



FORECASTING AND PROMISING DIRECTIONS OF INNOVATIVE INDUSTRIAL AND INVESTMENT DEVELOPMENT IN THE KASHKADARYA REGION.....	393
Sattorov Shohruh	
ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПЫТАТЕЛЬНЫХ ЛАБОРАТОРИЙ НА ОСНОВЕ РАСШИРЕННОЙ РИСК-ОРИЕНТИРОВАННОЙ МОДЕЛИ С ВЕСОВЫМИ КОЭФФИЦИЕНТАМИ.....	400
Загидуллина Карина Рафаиловна	
РОЛЬ ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ В РАЗВИТИИ ЖЕНСКОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА.....	405
Viktoriya Kan	
HUDUDLARDA SANOAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH JARAYONLARINI STATISTIK BAHOLASH.....	410
Nizomov Maxmud Minvarovich	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ И ПРАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ МЕТОДОЛОГИИ SWOT-АНАЛИЗА ПРИ ФОРМИРОВАНИИ КОРПОРАТИВНОЙ СТРАТЕГИИ.....	414
Махмудов Суннатжон Абдужаббор ўғли	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARI BOSHQARUVI STRATEGIYALARINI SAMARALI TASHKIL ETISH.....	419
Ubaydullayev Muhammadjon Abdusamad o'g'li	
TRANSFORMATSION YETAKCHILIK VA XODIMLARNING INNOVATSION XULQ-ATVORI: KORPORATIV TASHKILOTLARDA EMPIRIK TADQIQOT.....	423
Alimov Bobirjon	
EKSPORTBOP QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI QIYMAT ZANJIRIDA LOGISTIKA XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISHNING IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	432
Toxirov Shodibek Jo'ra o'g'li, G.M.Abdulxayeva	
ELEKTRON SAVDODA YASHIRIN IQTISODIY FAOLIYATNI QISQARTIRISHDA MOLIVAVIY NAZORAT MEKANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH.....	437
Iskandarova Munisa Hasan qizi	
MAMLAKAT INNOVATSION FAOLLIGIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLARNING NAZARIY VA USLUBIY TAHLILI.....	441
Azimov Bobir Fattohevich	
O'ZBEKISTON MAHALLIY BYUDJETLARINING O'ZIGA XOSLIGI VA UNING DAROMAD MANBALARINI KUCHAYTIRISH MEKANIZMINING ROLINI OSHIRISH MASALALARI.....	445
Safarmurodova Marjona To'raqulovna	
DAVLAT OLIY TA'LIM MUASSALARIDA MOLIVAVIY MUSTAQILLIK SHAROITIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASH VOSITALARI.....	450
Adizov Bobir Baxtiyorovich	
SIRKULAR IQTISODIYOT SOHASIDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR VA ULARNI O'ZBEKISTON SHAROITIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	457
Narzullayev Elmurod Shuxrat o'g'li	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA ETNOTURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA UNING IJTIMOY-IQTISODIY AHAMIYATI.....	462
Kunnazarova Orazxan	
YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA INVESTITSION FAOLLIK MEKANIZMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY JIHATLARI.....	468
Asadova Shaxzoda Zabikhillo qizi	
MINTAQA IMIJI VA INVESTITSIYA OQIMLARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	472
Ibodullayev Dilshod Ibragimovich	
INSON KAPITALI BARQAROR RIVOJLANISH MANBAI SIFATIDA.....	480
Alimova Oydin Baxtiyorovna	



STUDYING THE FACTORS INFLUENCING INNOVATIVE APPROACHES TO REGIONAL EXPORT EFFICIENCY	486
Qurbanov Feruz Baxramovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIGA XORIJIY INVESTITSİYALAR JALB ETISH MEKANIZMLARI	491
Xakimov Akbar Anvarovich	
XORIJIY DAVLATLARDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB QUVVATLASHNING ILG'OR TAJRIBALARI VA ULARNI MAMLAKATIMIZDA QO'LLASH XUSUSIYATLARI	496
Rajapov Xayrulla Bekdurdiyevich, Atabayeva Mexribon Atabayevna	
ENHANCING LIQUIDITY MANAGEMENT EFFICIENCY IN JOINT-STOCK COMPANIES USING THE GEOMETRIC BROWNIAN MOTION (GBM) MODEL.....	503
Kurbonov Xayrilla	
ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА.....	508
Тажибаева Кызларгул Ажиниязовна	
YOSHLAR BANDLIGI VA JINOYATCHILIK O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIKNI TAHLIL QILISH (O'ZBEKISTON MISOLIDA).....	514
Xusniddinova Gulnoza Ulug'bek qizi	
ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И НАЦИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ	520
Зарекеев Ажинияз Абатович	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ РАЗВИТИЯ МАЛОГО И СРЕДНЕГО БИЗНЕСА В БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ	527
Некова Фатима Борисовна	
DAVLAT INVESTITSIYA SIYOSATINI MODERNIZATSIYA QILISH VA LOYIHALAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	533
Kenjaev Ikrom Ergashboevich	
BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHDA YASHIL INVESTITSİYALARNING XALQARO AHAMIYATI.....	536
Siddikov Anvarbek Mamasoliyevich	
“SANOAT 5.0 VA BIZNES JARAYONLARINI BOSHQARISHDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASH IMKONIYATLARI”	540
Lutpidinov Shuxrat Zakirdjanovich	
REINVENTING MANAGEMENT SYSTEMS TO DRIVE EFFICIENCY IN INDUSTRIAL ENTERPRISES.....	545
Kodirov Bekzod Khomidjonovich	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MOLIVAVIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH SHAKLLARI.....	549
Primova Dilafuz To'liqinova	
TO'QIMACHILIK SANOATINING MILLIY IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI, O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	556
Shoyimov Adiz Sadredinovich	
ISHLAB CHIQARISH KLASTERLARINING HUDUDIY INNOVATSION RIVOJLANISHGA TA'SIRINI BAHOLASH.....	564
Turaeva Nargiza Rustamovna	
SAMARQAND VILOYATIDAGI HUDUDIY OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA RESURS SALOHİYATINI INTEGRATSİYALASHGAN BAHOLASH METODLARI TAHLILI.....	570
Meliboyev Ibrohim	
VIDEO-ANALITIKA ASOSIDA YONG'IN XAVFSIZLIK TIZIMLARINI AVTOMATLASHTIRISHNING TAKOMILLASHTIRILGAN YONDASHUVLARI	575
Shermuhhammad Mo'minov, Tojimirzayeva Xayrixon Abdushukur qizi	



DEVELOPMENT OF «GREEN» AGRICULTURAL SERVICES IN THE CONTEXT OF THE DIGITAL ECONOMY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN580

Mirzaev Kulmamat Djanzakovich

NAMANGAN VILOYATIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHALARINING HUDUDIY IXTISOSLASHUV DARAJASI586

Tohirov Jahongir Muzaffar o'g'li



NAMANGAN VILOYATIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHALARINING HUDUDIIY IXTISOSLASHUV DARAJASI

Tohirov Jahongir Muzaffar o'g'li

O'zbekiston Milliy universiteti

Davlat va korporativ strategiyalari mutaxassisligi magistranti

Email: jahongirbek1004@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda Namangan viloyatidagi xizmat ko'rsatish tarmoqlarining O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotidagi o'rni va ixtisoslashuv darajasi lokalizatsiya koeffitsiyenti (LQ) yordamida o'rganilgan. Tahlil uchun 2018–2025-yillar olingan bo'lib, bu davr mamlakatimiz iqtisodiyotida tub islohotlar amalga oshirilgan, pandemiya ta'siri sezilgan va statistik hisoblash metodologiyasida muhim o'zgarishlar yuz bergan paytni qamrab oladi. Hisob-kitoblar natijasida viloyatning shaxsiy xizmatlar, kompyuter va maishiy tovarlar hamda savdo sohalarida barqaror ixtisoslashuvga ega ekanligi isbotlangan. Shu bilan birga, moliyaviy xizmatlar, transport va muhandislik izlanishlari kabi tarmoqlarda jiddiy orqada qolish mavjudligi ko'rsatilgan. Tadqiqotda, shuningdek, 2024-yildan boshlab statistik metodologiyadagi o'zgarishlarning LQ ko'rsatkichlariga ta'siri alohida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: lokalizatsiya koeffitsiyenti (LQ), hududiy ixtisoslashuv, xizmat ko'rsatish sektori, Namangan viloyati, tarmoqlar tarkibi, iqtisodiy konsentratsiya, statistik tahlil.

Abstract. This study examines the relative weight and specialization level of the service sectors in the Namangan region within the economy of the Republic of Uzbekistan using the Location Quotient (LQ). The analysis covers the period of 2018–2025, a timeframe that encompasses fundamental economic reforms in the country, the impact of the pandemic, and significant changes in statistical calculation methodologies. The findings demonstrate that the region possesses a stable specialization in personal services, the repair of computers and household goods, and the trade sector. Conversely, a substantial lag is identified in sectors such as financial services, transportation, and engineering research. Furthermore, the study provides a specific analysis of the impact of statistical methodological changes introduced from 2024 onwards on the LQ indicators.

Key words: Location Quotient (LQ), regional specialization, service sector, Namangan region, sectoral structure, economic concentration, statistical analysis.

Аннотация. В данном исследовании с помощью коэффициента локализации (LQ) изучены относительный вес и уровень специализации отраслей сферы услуг Наманганской области в экономике Республики Узбекистан. Для анализа взят период 2018–2025 годов, который охватывает время проведения коренных экономических реформ в стране, воздействия пандемии и существенных изменений в методологии статистического учета. В результате расчетов доказано, что область имеет устойчивую специализацию в сфере индивидуальных услуг, ремонта компьютеров и бытовой техники, а также в торговле. Вместе с тем, показано наличие серьезного отставания в таких отраслях, как финансовые услуги, транспорт и инженерные изыскания. В исследовании также проведен отдельный анализ влияния изменений в статистической методологии, начиная с 2024 года, на показатели коэффициента локализации.

Ключевые слова: коэффициент локализации (LQ), региональная специализация, сектор услуг, Наманганская область, отраслевая структура, экономическая концентрация, статистический анализ.

KIRISH

Har bir hudud o'zining tabiiy sharoitlari, geografik joylashuvi, tarixiy an'analari va demografik xususiyatlariga ko'ra ma'lum bir iqtisodiy tarmoqlarda boshqalariga nisbatan ustunlikka ega bo'ladi. Bu jarayon iqtisodiy adabiyotlarda "hududiy ixtisoslashuv" tushunchasi bilan ifodalanadi. Iqtisodiy geografiya va mintaqaviy iqtisodiyot fanlarida hududlarning ixtisoslashuv darajasini aniqlash uchun turli xil usullardan foydalaniladi.



Bularning orasida lokalizatsiya koeffitsiyenti eng keng tarqalgan va amalda qo'llash mumkin bo'lgan qulay vositalardan biri bo'lib kelmoqda.

O'zbekiston mustaqillik yillaridan so'ng iqtisodiy tuzilmasini tubdan qayta shakllantirdi. Ayniqsa, 2017-yildan boshlab keng ko'lamlı islohotlar natijasida xizmat ko'rsatish sektorining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi sezilarli oshishda davom etmoqda. Mamlakatimizning deyarli barcha hududlarida xizmatlar hajmi o'sib bormoqda, ammo bu o'sishning tarkibiy xususiyatlari, ayrim sohalardagi konsentratsiya darajasi va vaqt o'tishi bilan uning qanday o'zgarayotganligini tahlil qilish ham alohida o'rganishni talab qiladi.

Namangan viloyati Farg'ona vodiysining shimoliy qismida joylashgan bo'lib, 2025-yil holatiga ko'ra viloyat aholisi 3 milliondan oshadi. Bu hudud an'anaviy ravishda qishloq xo'jaligi va hunarmandchilikka ixtisoslashgan bo'lsa-da, so'nggi yillardagi o'zgarishlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, xizmat ko'rsatish sektori ham jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. Viloyatda savdo, ta'lim, sog'liqni saqlash va shaxsiy xizmatlar sohalari alohida o'rin tutadi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi Namangan viloyatidagi xizmat ko'rsatish sohalarining 2018–2025-yillar davomidagi lokalizatsiya koeffitsiyentlarini hisoblash, ularning dinamikasini tahlil qilish va viloyatning raqobatbardosh ustunliklari hamda zaif tomonlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, uning natijalari viloyat darajasida iqtisodiy siyosat ishlab chiqishda, investitsiyalarni yo'naltirish bilan bir qatorda infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha qarorlar qabul qilishda ham foydalanilishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Lokalizatsiya koeffitsiyenti tushunchasi dastlab XX asrning o'rtalari — 1948-yilda amerikalik iqtisodchi P. Sargant Florence [1] tomonidan sanoat tarmoqlarining hududiy joylashuvini o'rganish maqsadida taklif qilingan bo'lib, keyinchalik W. Isard [2] 1960-yilda o'zining "Methods of Regional Analysis" asarida bu ko'rsatkichni hududiy iqtisodiyotni tahlil qilishning asosiy vositalaridan biri sifatida kengroq ishlab chiqdi. Uning yondashuviga ko'ra, LQ ma'lum hududdagi muayyan tarmoqning nisbiy konsentratsiyasini butun mamlakat yoki kattaroq iqtisodiy tizim bilan taqqoslash orqali hisoblanishini ilmiy izlanishlar orqali tushuntirdi.

A.M. Isserman [3] 1977-yilda o'zining tadqiqotlarida lokalizatsiya koeffitsiyentining afzalliklari va kamchiliklari haqida batafsil to'xtalib, bu ko'rsatkich oddiy va tushunarli bo'lishi bilan bir qatorda ma'lum cheklolarga ham ega ekanligini ta'kidlagan. Xususan, LQ faqat nisbiy konsentratsiyani o'lchashi va mutlaq hajmni hisobga olmasligini ham aytib o'tgan. Shuningdek, u statistik tasniflash mezonlaridagi o'zgarishlar natijalarni ham sezilarli o'zgartirishi mumkinligini qayd etgan.

M.M. Miller, L.J. Gibson va N.G. Wright [4] 1991-yilda lokalizatsiya koeffitsiyentini hududiy iqtisodiy rivojlanishni tahlil qilishning asosiy vositasi sifatida batafsil tavsiflagan. A. Crawley, M. Beynon va M. Munday [6] 2013-yilda esa LQ ko'rsatkichining hududiy siyosatni ishlab chiqishdagi ahamiyatini o'rganib, uning amaliy qo'llanilishi bo'yicha muhim takliflar bergan. Biroq, O'zbekiston kontekstida, xususan xizmat ko'rsatish sektori bo'yicha Namangan viloyati misolida LQ usulini qo'llagan maxsus tadqiqotlar deyarli uchramaydi, bu esa mazkur tahliliy maqola ishining ilmiy yangiligini tashkil etadi.

Hududiy ixtisoslashuvni o'rganishda LQ bilan bir qatorda boshqa usullar ham qo'llaniladi. Bular orasida Herfindahl–Hirschman indeksi (HHI), Krugman ixtisoslashuv indeksi, shift-share tahlili va klaster tahlilini sanab o'tish mumkin. Biroq, LQ o'zining soddaligi, interpretatsiya qulayligi va ma'lumotlarga bo'lgan minimal talablari tufayli amaliyotda eng ko'p qo'llaniladigan vosita sifatida bo'lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning asosiy ma'lumotlar manbasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi (stat.uz) va Namangan viloyati statistika boshqarmasi (namstat.uz) tomonidan e'lon qilingan 2018–2025-yillar uchun rasmiy statistik ma'lumotlardan foydalanilgan.

Tahlilda 12 ta asosiy xizmat ko'rsatish sohasi qamrab olingan bo'lib, bular aloqa va axborotlashtirish xizmatlari, moliyaviy xizmatlar, transport xizmatlari, yashash va ovqatlanish xizmatlari, savdo xizmatlari, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar, ta'lim sohasidagi xizmatlar, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar, ijara xizmatlari, kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar, shaxsiy xizmatlar hamda me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar.

Lokalizatsiya koeffitsiyentini hisoblash metodikasi asosida lokalizatsiya koeffitsiyenti quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$LQ = (e_i / e) / (E_i / E)$$

bu yerda e_i - Namangan viloyatida i-xizmat turining hajmi;

e - Namangan viloyatida barcha xizmatlarning jami hajmi;

E_i - O'zbekiston Respublikasida i-xizmat turining hajmi;

E - O'zbekiston Respublikasida barcha xizmatlarning jami hajmi.

Ko'rsatkichni talqin qilish tartibi quyidagicha:

$LQ > 1,25$ - hudud ushbu sohada yuqori darajada ixtisoslashgan, ya'ni tarmoqning ulushi milliy o'rtachadan 25 foizdan ortiq yuqori. Bu viloyatning ushbu sohada raqobatbardosh ustunlikka ega ekanligini ko'rsatadi.

$1,0 < LQ < 1,25$ - o'rtacha ixtisoslashuv mavjud, tarmoq hududda nisbatan rivojlangan, biroq ajralib turadigan darajada emas.

$0,75 < LQ < 1,0$ - tarmoq nisbatan kam rivojlangan, biroq jiddiy orqada qolish kuzatilmaydi.

$LQ < 0,75$ - hudud ushbu sohada ixtisoslashmagan, tarmoqning ulushi milliy o'rtachadan sezilarli past, rivojlantirish uchun imkoniyatlar katta.


TAHLIL VA NATIJALAR

Namangan viloyatidagi xizmat ko'rsatish sohasining umumiy holatini o'rganar ekanmiz, 2018-yilda viloyatda jami 6 023,8 mlrd so'mlik xizmat ko'rsatilgan bo'lsa, 2025-yilga kelib bu ko'rsatkich 56 282,9 mlrd so'mga yetganligini ko'ramiz. Bu sakkiz yil ichida xizmatlar hajmi 9,3 barobarga o'sganligini anglatadi. O'sish har yili bir xil bo'lmaganligini 2018–2023-yillar davri mobaynida xizmatlar hajmi yiliga o'rtacha 20–25 foiz o'sib borganligi orqali sezilsa, 2024-yilda keskin o'sish kuzatilgan.

2018–2023-yillardagi o'zgarishlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, savdo xizmatlari barqaror ravishda eng katta ulushga ega bo'lganligi va umumiy hajmning 30–36 foizini tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin. Ikkinchi o'rinda transport xizmatlari (18–20 foiz), uchinchi o'rinda esa moliyaviy xizmatlar (10–17 foiz). Lekin shunga qaramay, 2024-yildan boshlab yashash va ovqatlanish xizmatlari ulushi 42 foizga yetib, birinchi o'ringa chiqqan va bu o'zgarishlar butun tarkibiy tuzilmaning qayta shakllantirilishiga o'z hissasini qo'shgan, deb ayta olamiz.

Viloyatda xizmat ko'rsatish sohasining tarkibiy tuzilishi yillar davomida sezilarli darajada o'zgarganligi ko'zga tashlanadi. 2018–2023-yillarni ko'rganimizda savdo xizmatlari barqaror ravishda eng katta ulushga ega bo'lganligi va umumiy hajmning 30–36 foizini tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin (1-rasm).

Namangan viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining umumiy hajmi dinamikasi (mlrd so'm)




1-rasm. Namangan viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining umumiy hajmi dinamikasi¹

1-rasmdagi tahlillarga asoslanib xulosa qilganda, 2018–2023-yillarda o'sish nisbatan barqaror bo'lganligi kuzatiladi va 2024-yildan boshlab keskin oshish kuzatilganligi qayd etildi. Bu holat 2024-yildan boshlab yashash va ovqatlanish xizmatlari tarkibiga yangi kategoriyalarning qo'shilishi bilan bog'liq bo'lib, bu o'zgarish jami ko'rsatkichga nisbatan ham o'z ta'sirini ko'rsatgan (2-rasm).

1 Manba: Namangan viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



Namangan viloyati xizmat turlarining tarkibiy tuzilishi dinamikasi, %



2-rasm. Namangan viloyati xizmat turlarining tarkibiy tuzilishi dinamikasi²

1-jadvalda Namangan viloyatining barcha 12 ta xizmat sohasi bo'yicha 2018–2025-yillar uchun hisoblangan LQ qiymatlari dinamikalari keltirilgan (1-jadval).

1-jadval. Namangan viloyati lokalizatsiya koeffitsiyentlari (LQ)³

Xizmat turi	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Aloqa va axborotlashtirish	1.1	1.07	0.96	0.83	0.78	0.74	0.42	0.37
Moliyaviy xizmatlar	0.73	0.79	0.8	0.76	0.75	0.74	0.49	0.48
Transport xizmatlari	0.67	0.69	0.76	0.8	0.75	0.82	0.65	0.66
Yashash va ovqatlanish	0.62	0.7	0.8	0.78	0.8	0.75	1.88	1.94
Savdo xizmatlari	1.32	1.31	1.27	1.27	1.34	1.32	1.03	1.06
Ko'chmas mulk	1.02	1	0.92	0.94	1.03	1.04	0.55	0.53
Ta'lim sohasidagi	1.21	1.12	1.16	1.14	1.22	1.17	0.94	1.11
Sog'liqni saqlash	1.35	1.36	1.35	1.16	1.25	1.26	0.89	0.84
Ijara xizmatlari	1	1	1.17	1.13	1.1	1.02	0.72	0.64
Kompyuter va maishiy tovarlar	1.7	1.71	1.58	1.78	1.74	1.91	1.48	1.46
Shaxsiy xizmatlar	2.63	2.73	2.55	2.6	2.63	2.78	2.01	1.99
Me'morchilik, muhandislik	0.57	0.76	0.67	0.5	0.52	0.65	0.4	0.37

2 Manba: Muallif tomonidan hisoblangan.


3 Manba: Muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi va Namangan viloyati statistika ma'lumotlari asosida hisoblangan.

Namangan viloyatida shaxsiy xizmatlar sohasini tahlil qilishda soha butun davr mobaynida eng yuqori LQ ko'rsatkichiga ega bo'lganligi ko'rinadi. 2018–2023-yillarda bu ko'rsatkich 2,55 dan 2,78 gacha oraliqda bo'lganligi viloyatdagi shaxsiy xizmatlar ulushining respublika o'rtachasidan kamida ikki yarim barobar yuqori ekanligini anglatadi. Bu natija tasodifiy emas, Namangan azaldan hunarmandchilik, tikuvchilik, sartaroshlik kabi an'anaviy kasblarga boy hudud hisoblanadi. Viloyatda kichik tadbirkorlik va oilaviy biznes an'analari chuqur ildiz otgan, bu esa shaxsiy xizmatlar sohasining kuchli rivojlanishiga zamin yaratgan. 2024–2025-yillarda LQ biroz pasayib, 1,99–2,01 ga tushgan bo'lsa-da, bu hali ham juda yuqori ko'rsatkich bo'lib, viloyatning ushbu sohadagi mutlaq ustunligini saqlab qolganligini ko'rsatadi. Pasayishning sababi shaxsiy xizmatlar o'sish sur'atining biroz pasaygani emas, balki boshqa sohalar (xususan, yashash va ovqatlanish) tarkibining o'zgarishi natijasida solishtirish bazasining o'zgaraganligidir.

Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash sohasi barqaror ravishda LQ > 1,4 ko'rsatgan va 2018-yilda 1,70 dan 2023-yilga kelib 1,91 gacha o'sib, 2025-yilda 1,46 ga tushgan. Viloyatda maishiy texnikani ta'mirlash xizmatlariga bo'lgan yuqori talab bir necha omil bilan bog'liq: birinchidan, viloyat aholisining urbanizatsiya darajasi nisbatan past bo'lib, yangi texnika sotib olishdan ko'ra ta'mirlash xizmatlaridan ko'proq foydalaniladi, ikkinchidan, viloyatda bu sohada yetuk hunarmandlar avlodlari shakllangan.

Savdo xizmatlari 2018–2023-yillarda LQ 1,27–1,34 darajasida barqaror bo'lib, bu viloyatda savdo faoliyatining nisbatan kuchli ekanligini ko'rsatadi. Namangan viloyati Farg'ona vodiysidagi yirik savdo markazlaridan biri hisoblanadi va viloyatning geografik joylashuvi an'anaviy bozor savdosi uchun qulay sharoit yaratadi. Biroq, 2024–2025-yillarda LQ 1,03–1,06 gacha tushgan, bu esa viloyatning savdo sohasidagi nisbiy ustunligi kamayib borayotganligini anglatadi. Buning sababi boshqa viloyatlarda zamonaviy savdo markazlari va elektron tijorat tizimlarining tez rivojlanishi bo'lishi mumkin (3-rasm).

Yuqori ixtisoslashgan sohalar bo'yicha LQ ko'rsatkichlari dinamikasi (2018-2025)



3-rasm. Yuqori ixtisoslashgan sohalar bo'yicha LQ dinamikasi⁴

Me'morchilik va muhandislik izlanishlar bo'yicha LQ ko'rsatkich 0,37 dan 0,76 gacha bo'lib, xususan, 2024–2025-yillarda LQ 0,37–0,40 darajasigacha tushib ketgan. Bu shuni anglatadiki, viloyatda muhandislik xizmatlari, ilmiy-texnik izlanishlar va arxitektura loyihalash sohalar respublika o'rtachasidan uch barobardan ko'p past rivojlangan.


Moliyaviy xizmatlar 2018–2023-yillarda LQ 0,73–0,80 atrofida bo'lib, nisbatan barqaror ko'rsatkich bo'lgan bo'lsa-da, 2024–2025-yillarda bu ko'rsatkich 0,48–0,49 gacha pasaygan.

Transport xizmatlari bo'yicha ixtisoslashuv LQ 0,65–0,82 oralig'ida bo'lib, viloyatdagi yo'llar sifatining yaxshilanishi va yangi transport vositalarining kiritilishi bilan bu ko'rsatkich asta-sekin o'sish tendensiyasini ko'rsatmoqda (4-rasm).

4 Manba: Muallif tomonidan hisoblangan




Past ixtisoslashgan sohalar bo'yicha LQ ko'rsatkichlari dinamikasi (2018-2025)



4-rasm. Past ixtisoslashgan sohalar bo'yicha LQ dinamikasi⁵

5-rasmda 2025-yil uchun barcha xizmat sohalarining LQ ko'rsatkichlari gorizontali ustunli diagramma shaklida keltirilgan bo'lib, bu diagramma viloyatning ixtisoslashuv darajasini yaqqol ko'rsatadi. Shaxsiy xizmatlar va kompyuter xizmatlari aniq ustunlikka ega bo'lib, savdo va ta'lim ixtisoslashuv chegarasida turgan bo'lsa, qolgan sohalar esa respublika o'rtachasidan past ekanligi kuzatiladi (5-rasm).

2025 yil uchun Namangan viloyati xizmat sohalarining lokalizatsiya koeffitsiyentlari



5-rasm. 2025-yilda Namangan viloyati xizmat sohalarining LQ reytingi

Namangan viloyatida yashash va ovqatlanish xizmatlari sohasi hajmi 2023-yildagi 522,7 mlrd so'mdan 2024-yilda 18 171,8 mlrd so'mga, ya'ni 34,8 barobar oshdi. Bu o'zgarish nafaqat yashash va ovqatlanish sohasi LQ-siga, balki barcha boshqa sohalarning nisbiy ulushiga ham ta'sir ko'rsatdi. Xususan, yashash va ovqatlanish xizmatlari LQ-si 2023-yildagi 0,75 dan 2024-yilda 1,88 gacha ko'tarildi. Boshqa tomondan, aloqa va axborotlashtirish (1,10 dan 0,37 ga), ko'chmas mulk (1,04 dan 0,53 ga), ijara (1,02 dan 0,64 ga) va sog'liqni saqlash (1,26 dan 0,84 ga) kabi sohalar sezilarli pasaygan. Bu o'zgarishlar real iqtisodiy o'sish yoki pasayish emas, balki statistik tasniflash tizimidagi o'zgarish natijasi ekanligini alohida ta'kidlash lozim. Shu sababli, tadqiqot natijalarini talqin qilishda 2018–2023-yillar va 2024–2025-yillar ko'rsatkichlarini alohida-alohida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. 2018–2023-yillar ko'rsatkichlari metodologik jihatdan bir xil asosda hisoblangan bo'lib, ularni o'zaro taqqoslash to'g'ri natija beradi. 2024–2025-yillar esa yangi metodologiya doirasida hisoblangan bo'lib, ular bilan taqqoslash uchun yangi baza davrini belgilash talab etiladi.

5 Manba: Muallif tomonidan hisoblangan.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot Namangan viloyatidagi xizmat ko'rsatish sohasining hududiy ixtisoslashuv xususiyatlarini chuqur tahlil qilish imkonini berdi. Sakkiz yillik (2018–2025-yillar) kuzatish davri mobaynida olingan natijalarni umumlashtirib, quyidagi asosiy xulosalarni shakllantirish mumkin.

Birinchiidan, Namangan viloyati shaxsiy xizmatlar va kompyuter hamda maishiy tovarlarni ta'mirlash sohasida barqaror va yuqori ixtisoslashuvga ega. Bu sohaslar viloyatning raqobatbardosh ustunliklari hisoblanadi. Shaxsiy xizmatlar bo'yicha LQ butun davr mobaynida 2,0 dan past tushmagan, bu esa viloyatning ushbu sohadagi mutlaq dominantligini tasdiqlaydi. Ushbu ustunlikni saqlab qolish va mustahkamlash uchun hunarmandchilik an'analarini qo'llab-quvvatlash, shu sohalarda kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish va kichik biznesni rag'batlantirish zarur.

Ikkinchiidan, savdo xizmatlari va ta'lim sohalari o'rtacha ixtisoslashuv darajasiga ega bo'lib, ularning LQ ko'rsatkichlari 1,0 atrofida turibdi. Bu sohaslar viloyat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismlari bo'lib, ularni yanada rivojlantirish uchun zamonaviy savdo infratuzilmasini yaratish, elektron tijoratni kengaytirish va ta'lim xizmatlarining sifatini oshirish kerak.

Umuman olganda, Namangan viloyati xizmat ko'rsatish sektorida aniq ixtisoslashuvlarga ega hudud hisoblanadi. Viloyat an'anaviy xizmat turlari (shaxsiy xizmatlar, savdo, ta'lim)da kuchli, zamonaviy xizmatlar (moliya, muhandislik, transport)da esa zaif tomonlarga ega. Bu tahlillar esa viloyat iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va zamonaviylashtirish uchun katta imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Florence, P.S. Investment, Location, and Size of Plant. - Cambridge University Press, 1948. - 211 p.
2. Isard, W. Methods of Regional Analysis: An Introduction to Regional Science. - Cambridge: MIT Press, 1960. - 784 p.
3. Isserman, A.M. The Location Quotient Approach to Estimating Regional Economic Impacts // Journal of the American Institute of Planners. - 1977. - Vol. 43, No. 1. - P. 33-41.
4. Miller, M.M., Gibson, L.J., Wright, N.G. Location Quotient: A Basic Tool for Economic Development Analysis // Economic Development Review. - 1991. - Vol. 9, No. 2. - P. 65-68.
5. Moineddin, R., Beyene, J., Boyle, E. On the Location Quotient Confidence Interval // Geographical Analysis. - 2003. - Vol. 35, No. 3. - P. 249-256.
6. Crawley, A., Beynon, M., Munday, M. Making Location Quotients More Relevant as a Policy Aid in Regional Spatial Analysis // Urban Studies. - 2013. - Vol. 50, No. 9. - P. 1854-1869.
7. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari, 2018-2025-yillar. - stat.uz
8. Namangan viloyat statistika boshqarmasi. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari, 2018-2025-yillar. - namstat.uz

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100